



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohada qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

- birinchidan**, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;
- ikkinchidan**, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;
- uchinchidan**, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;
- to‘rtinchidan**, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;
- beshinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;
- oltinchidan**, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;
- yettinchidan**, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- sakkizinchidan**, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;
- to‘qqizinchidan**, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIIY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	93
Xodjaye va Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIIY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	
TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	107
Alimardonova Z. M.	
SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH — BARQAROR TARAQQIYOT OMILI	111
Jo'rayev Komiljon Begmonovich	
Xudoyqulov Avloqul Nurmanovich	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH SHAROITIDA SHAHAR VA SANOAT HUDUDLARINI «YASHIL» ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY KAFOLATLARI	114
Berdikulova Munira Faxriddin qizi	
EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA XALQARO HUQUQIY STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: XALQARO MAJBURIYATLAR IJROSI USTIDAN PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	118
Egamberdiyeva Sevara Baxodir qizi	
EKOLOGIK MASALALARDA PARLAMENTLARARO HAMKORLIK VA XALQARO TAJRIBA ALMASHINUVI	123
Ergasheva Nodira Toxir qizi	
IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHUV SIYOSATIDA FARG'ONA VILOYATINING YEROSTI SUVLARI MONITORINGI.....	127
Abdulxayev Zoxidjon	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENT NAZORATINING NATIJADORLIGI: INSTITUTSIONAL MEZONLAR.....	132
Saburova Juldizxan Axmetovna	
O'ZBEKISTONDA IQLIM O'ZGARISHINING AMUDARYO HAVZASI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI SUV RESURLARI HAMDA QISHLOQ XO'JALIGIGA TA'SIRI	137
Mamadiyarov Dilshod Uralovich	
Xodjiyev Alisher Kuldashevich	
IQLIM O'ZGARISHINING ZAYTUN NAVLARINING GULLASHIGA TA'SIRI.....	140
Yormatova D.Y.	
Xaydarkulov S.	
BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI AMALGA OSHIRISHDA PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	143
Jo'rayeva Shahina Narzullayevna	
IQLIM MUAMMOLARI VA ULARNI YUMSHATISHGA DOIR AMALIY YECHIMLAR.....	146
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
Qodirova Shahnoza Ziyodulloyevna	
YASHIL BELBOG'LAR NEGA KERAK?.....	149
Yormatova Dilorom Yormatovna	
MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI: XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI VA JAMOATCHILIK NAZORATI.....	154
Sharipova Diyora Botirovna	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK MADANIYAT VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	158
Toshturdiyev Nurbek Nurali o'g'li Hakimova Mahbuba	
EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING AHAMIYATI.....	163
Qutlymuratov Baxitbay Xojabayeich	
ARASTUNING ONG VA TABIAT HAQIDAGI TA'LIMOTINING SHARQ FALSAFASIGA TA'SIRI.....	166
Umaraliyeva Gulchexra Baxodirjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВОЧНОЙ ИНДУСТРИИ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ОЦЕНКА РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ.....	169
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
TALABA-YOSHLARDA EKOLOGIK-HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	172
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
MINTAQAVIY EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA O'RMON FONDI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HAMDA PARLAMENT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	177
Egamberdiyev Shaxzod Baxodir o'g'li	

İQTİSODİYOT EKONOMİKA ESONOMU

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4544-8530>

Аннотация. В тезисе комплексно проанализированы вопросы рационального использования потенциала лесного фонда Республики Узбекистан и совершенствования парламентского контроля в обеспечении региональной экологической стабильности в условиях усиления глобального изменения климата, опустынивания и дефицита водных ресурсов. В исследовании научно-практические и агротехнологические решения по созданию защитных лесных насаждений в аридных и полуаридных районах, восстановлению лесного биоразнообразия и адаптации к изменению климата рассмотрены во взаимосвязи с государственной экологической политикой и общенациональным проектом «Яшил макон».



Кроме того, разработаны научно-практические предложения, направленные на усиление правовой и институциональной роли Законодательной палаты Олий Мажлиса в обеспечении реализации Закона Республики Узбекистан «О лесе» [2], экологических норм Конституции Республики Узбекистан в новой редакции [8], а также целей 13 и 15 в рамках Целей устойчивого развития ООН. Результаты исследования могут способствовать рациональному использованию земель лесного фонда, расширению озеленённых территорий, совершенствованию экологического законодательства и повышению эффективности парламентского контроля.

Ключевые слова: лесной фонд, экологическая стабильность, изменение климата, парламентский контроль, защитные лесные насаждения, аридные зоны, общенациональный проект «Яшил макон», экологическое законодательство, Цели устойчивого развития, агротехнологии.

KIRISH

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi, haroratning anomal oshishi, suv resurslari tanqisligi hamda cho'llanish jarayonlarining jadallashuvi Markaziy Osiyo mintaqasining ekologik va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim muammolardan biriga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi (UNFCCC) doirasidagi xalqaro majburiyatlar hamda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Parij bitimi [11], shuningdek, BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 13-maqsadi — «Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash» va 15-maqsadi — «Quruqlik ekotizimlarini asrash va barqaror boshqarish» bo'yicha milliy vazifalar [10] har bir davlatdan iqlim o'zgarishiga moslashish va uning salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan samarali strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi umumiy yer maydonining 80 foizdan ortig'i arid va yarim arid, ya'ni cho'l hamda yarim cho'l zonalaridan iborat bo'lib, mintaqaviy ekologik barqarorlikni saqlashda o'rmon ekotizimlari muhim ahamiyatga ega. 2024-yilda e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, respublika o'rmon fondi yerlarining umumiy maydoni 11,9 million gektarni, ya'ni mamlakat umumiy yer maydonining 26,4 foizini tashkil etgan. Shundan o'rmon bilan qoplangan yerlar 3,5 million gektar yoki respublika umumiy yer maydonining 7,7 foiziga teng bo'lgan [1].

Bu holat tabiatda uglerod zaxirasini ushlab turish, shamol hamda suv eroziyasining oldini olish uchun o'rmon fondi imkoniyatlaridan yanada samarali va ilmiy agrotexnologiyalar asosida foydalanishni taqozo etmoqda.

O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va yashil taraqqiyotni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy hamda institutsional chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan:

— Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati haqidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi hamda davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi mustahkamlab qo'yilgan [8].

— O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risida»gi Qonuni o'rmonlarni muhofaza qilish, qayta tiklash va ulardan oqilona foydalanishning huquqiy asoslarini belgilaydi [2].

— «Yashil makon» umummilliy loyihasining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son Farmoni bilan belgilangan [3]. Loyiha doirasida 2024-yilda respublika bo'yicha 224 million tup, jumladan, bahorgi mavsumda 138 million va kuzgi mavsumda 86 million tup daraxt va buta ko'chatlari ekilgan [7].

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamda siyosiy partiyalar fraksiyalari alohida o'rin tutadi. Parlament eshituvi, parlament va deputatlik so'rovlari, shuningdek, nazorat-tahlil faoliyati davlat ekologik dasturlari hamda o'rmonlarni muhofaza qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning muhim institutsional vositalari hisoblanadi [9].

Ushbu ilmiy-amaliy tadqiqotning asosiy maqsadi — arid va yarim arid sharoitlarda o'rmon fondi imkoniyatlaridan foydalanishning ilmiy-agrotexnologik yechimlarini asoslash hamda ushbu jarayonlarni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ekologik siyosat, milliy qonunchilik va parlament nazorati mexanizmlari bilan uzviy bog'lagan holda mintaqaviy ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. O'rmon fondi yerlarining hozirgi ekologik holati va ularning mintaqaning iqlim o'zgarishiga moslashuvdagi rolini ilmiy jihatdan tahlil qilish;

2. Arid zonlarda ihota o'rmonlarini barpo etish va bioxilma-xillikni tiklashning ilg'or agrotexnologik imkoniyatlarini umumlashtirish;



3. «Yashil makon» umummilliy loyihasi va BRM maqsadlari ijrosida parlament nazorati hamda ekologik qonunchilikni yanada rivojlantirishning amaliy mexanizmlarini asoslash.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini ekologik-fitomeliyativ, qiyosiy-huquqiy hamda tizimli-institutsional tahlil usullari tashkil etadi. Arid va yarim arid zonalarda o'rmon fondi imkoniyatlaridan foydalanish hamda parlament nazorati samaradorligini baholashda quyidagi usul va materiallardan foydalanildi:

1. Fitomeliyativ va ekologik monitoring uslubi: O'zbekistonning arid va cho'l mintaqalarida, jumladan, Qizilqum, Orolbo'yi va cho'l-dasht zonalarda iqlim o'zgarishi hamda qurg'oqchilikka chidamli daraxt va buta turlari — *Haloxylon persicum*, *Salsola richteri*, *Calligonum aphyllum*, *Tamarix*, *Pinus eldarica* va boshqalarning ekologik va dendrologik xususiyatlari o'rganildi. Mazkur turlarning bioxilma-xillikni tiklash, tuproqni mustahkamlash hamda cho'llanish jarayonlarini sekinlashtirishdagi ahamiyati o'rmonchilikka oid ilmiy va uslubiy manbalar asosida umumlashtirildi [4; 5].

2. Normativ-huquqiy va qiyosiy tahlil uslubi: O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risida»gi Qonuni, Yer kodeksi, «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 13- va 15-maqsadlariga oid milliy vazifalarning huquqiy va amaliy ijrosi qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilindi [2; 3; 6; 10].

3. Institutsional tahlil va monitoring usuli: Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasining ekologik dasturlar va o'rmon fondini muhofaza qilish bo'yicha nazorat-tahlil faoliyati o'rganildi. Tadqiqot materiallari sifatida O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi hamda uning huzuridagi O'rmon agentligining rasmiy statistik ma'lumotlari, shuningdek, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining o'rmonchilikka oid hisobotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan ilmiy-agrotexnologik va normativ-huquqiy tahlillar mintaqaviy ekologik barqarorlikni ta'minlashda o'rmonchilik agrotexnologiyalarining samaradorligi hamda ularni huquqiy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

1. O'rmon fondi agrotexnologiyalarining ekologik hamda iqtisodiy samaradorligi

- Eroziyaga qarshi va mikroiklim samaradorligi: arid va yarim arid sharoitlarda o'rmonlar hamda ihota daraxtzorlari shamol tezligini pasaytirish, tuproq namligini saqlash va shamol eroziyasining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Ihota daraxtzorlari qishloq xo'jaligi ekinlari uchun qulay mikroiklim yaratib, tuproqning suv va fizik xususiyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi [4; 5].

- Fitomeliyativ va uglerodni biriktirish samaradorligi: cho'l va arid zonalarda saksovul, qandim va boshqa cho'l o'simliklaridan iborat o'rmonzorlar qum ko'chishini kamaytirish, tuproq yuzasini mustahkamlash hamda atmosferadagi uglerodni o'simlik biomassasi va tuproqda biriktirishga xizmat qiladi [5; 12].

- Orolbo'yi mintaqasidagi ijobiy natijalar: Orol dengizining qurigan tubida saksovul va boshqa cho'l o'simliklaridan iborat yashil qoplamalarni barpo etish bo'yicha keng ko'lamli o'rmon-meliyativ tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar sho'rlangan tuproq yuzasini mustahkamlash, tuz va chang zarrachalarining atmosferaga ko'tarilishini kamaytirish hamda hududning ekologik holatini yaxshilashga xizmat qilmoqda [1; 13].

1-jadval

O'rmon fondi turlari va ularning ekologik-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari¹

T/r	O'rmon fondi va o'simlik turi	Asosiy tarqalgan mintaqasi	Ekologik samaradorlik ko'rsatkichi	Iqtisodiy va agrotexnologik ta'siri
1	Cho'l o'rmonlari (<i>Haloxylon</i> , <i>Calligonum</i> , <i>Salsola</i>)	Qizilqum, Orolbo'yi va cho'l zonalari	Yiliga 1,2–1,8 t/ga qum ko'chishini to'xtatadi	Deflyatsiya (shamol yuvilishi) ni kamaytiradi, tuproqni mustahkamlaydi
2	Ixota daraxtzorlari (<i>Populus</i> , <i>Salix</i> , <i>Morus</i>)	Sug'oriladigan ekin maydonlari atrofi	Shamol tezligini 35–50% ga pasaytiradi	Tuproq namligini saqlaydi, hosildorlikni 10–14% oshiradi
3	Tog' va tog'oldi o'rmonlari (<i>Juniperus</i> , <i>Juglans</i> , <i>Amygdalus</i>)	Tog' va tog'oldi hududlari	Suv va sel eroziyasining oldini oladi	Yer osti suv manbalarini to'ldiradi, yer ko'chishini to'xtatadi

¹ Manba: muallif ishlanmasi.



2. «Yashil makon» umummilliy loyihasining ilmiy va amaliy ko'rsatkichlari

• «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida 2024-yilda respublika bo'yicha jami 224 million tup, jumladan, bahorgi mavsumda 138 million va kuzgi mavsumda 86 million tup daraxt va buta ko'chatlari ekilgan [7].

• Yangi barpo etilayotgan yashil hududlarda tomchilatib sug'orish va boshqa suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish nihollarni parvarishlash samaradorligini oshirish, suv sarfini kamaytirish hamda qurg'oqchil sharoitda ko'chatlarning yashovchanligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi [3; 6].

3. Ekologik qonunchilik va parlament nazoratining institutsional ko'rsatkichlari

• O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasi, «O'rmon to'g'risida»gi va «Parlament nazorati to'g'risida»gi qonunlar asosida davlat ekologik dasturlari hamda o'rmon fondini muhofaza qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslari shakllantirilgan [2; 8; 9].

• O'rmon fondi yerlaridan foydalanish monitoringida zamonaviy GIS (geoinformatsion) platformalari va sun'iy yo'ldosh orqali masofadan zondlash texnologiyalari joriy etilib, yashil hududlarning doimiy raqamli hisobi va hisobdorligi ta'minlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda cho'llanishga qarshi kurashish va ekologik barqarorlikni mustahkamlashda o'rmon-meliorativ tadbirlar muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, Orolbo'yi va Qizilqum hududlarida barpo etilayotgan yashil qoplamalar hudud mikroiqlimini barqarorlashtirish hamda tuproq unumdorligini saqlashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Biroq global iqlim o'zgarishi tezlashayotgan va suv resurslari taqchilligi ortib borayotgan sharoitda faqat agrotexnologik chora-tadbirlarning o'zi yetarli emas.

Ushbu jarayonda davlat ekologik dasturlarining ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini o'rnatish mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar tomonidan o'tkazilayotgan nazorat-tahlil tadbirlari — o'rmon fondi yerlaridan maqsadli foydalanish, mablag'larning to'g'ri yo'naltirilishi, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ekilgan ko'chatlarning parvarishi ustidan tizimli hisobdorlikni ta'minlashda muhim institutsional vositalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlil va o'rganishlarga asoslanib, sohani yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy hamda huquqiy takliflar ilgari suriladi:

1. Agrotexnologik yo'nalishda: o'rmon xo'jaliklarida qurg'oqchilikka va sho'rga chidamli endemik o'simlik turlari (saksovul, qandim, cherkez kabi) urug'chiligini va ko'chat yetishtirishni sanoat usulida kengaytirish lozim. Yangi o'rmonzorlarni barpo etishda yopiq ildiz tizimiga ega konteynerli ko'chatlarni yetishtirish texnologiyalarini keng joriy etish orqali ko'chatlarning tutib ketish darajasini oshirish va suv sarfini kamaytirish zarur.

2. Raqamlashtirish va doimiy monitoring yo'nalishida: o'rmon fondi va «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida ekilgan daraxtlarni monitoring qilishda GIS (geoinformatsion tizimlar) va sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari yordamida yagona raqamli pasportlashtirish tizimini to'liq ishga tushirish kerak. Ushbu milliy bazani Oliy Majlisning tegishli qo'mitalari hamda jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan monitoring platformasiga integratsiya qilish taklif etiladi.

3. Huquqiy va institutsional yo'nalishda: o'rmon fondini muhofaza qilish, kengaytirish va undan oqilona foydalanishda jamoatchilik hamda deputatlik nazoratini kuchaytirish maqsadida xalq deputatlari mahalliy Kengashlari huzurida «Ekologiya va o'rmon nazorati» maslahat komissiyalarini tashkil etish hamda ularning vazifalari va vakolatlarini normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilash taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Respublikada ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida 240 ming gektar o'rmonzorlar, Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'yi mintaqasida 226 ming gektar maydonda «yashil qoplamalar» barpo etiladi [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. — 2024-yil 16-oktabr. — URL: <https://gov.uz/oz/urmon/news/view/55639> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasining ««O'rmon to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni [Elektron resurs] : 2018-yil 16-aprel, O'RQ-475-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-3683529> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni [Elektron resurs] : 2021-yil 30-dekabr, PF-46-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5801444> (murojaat sanasi: 04.08.2026).



4. Qayimov, A. Q. Dendrologiya : darslik / A. Q. Qayimov, E. T. Berdiyev. — Toshkent : Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. — 336 b. — ISBN 978-9943-05-511-7.
5. World Bank. Uzbekistan Country Forest Note: The State of Forests and Forest Landscapes in Uzbekistan [Electronic resource]. — Washington, DC : World Bank, 2022. — DOI: 10.1596/37690. — URL: <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/37690> (accessed: 04.08.2026).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori [Elektron resurs] : 2020-yil 6-oktabr, PQ-4850-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5037201> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
7. 2024-yilda ekologik vaziyatni yaxshilash borasida qanday ishlar amalga oshirildi? [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. — 2024-yil 26-dekabr. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/31481> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Elektron resurs] : 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
9. O'zbekiston Respublikasining «Parlament nazorati to'g'risida»gi Qonuni [Elektron resurs] : 2016-yil 11-aprel, O'RQ-403-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-2929477> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori [Elektron resurs] : 2022-yil 21-fevral, 83-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5870397> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
11. O'zbekiston Respublikasining «Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi Qonuni [Elektron resurs] : 2018-yil 2-oktabr, O'RQ-491-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-3924460> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
12. FAO. Global Forest Resources Assessment 2020: Report Uzbekistan [Electronic resource]. — Rome : Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2020. — URL: <https://www.fao.org/3/cb0087en/cb0087en.pdf> (accessed: 04.08.2026).
13. Orol dengizining qurigan tubiga yangi turdagi o'simliklar ekilmoqda [Elektron resurs] // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. — 2024-yil 10-iyun. — URL: <https://gov.uz/oz/eco/news/view/13541> (murojaat sanasi: 04.08.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

